



**ONA ASSOTSIATIV PORTRETIDA ONA OBRAZINING IJTIMOIIY VA
PSIXOLOGIK HOLATI TASVIRI**

Murodova Xafiza Muhammadjonovna

Qo'qon DU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona obrazining assotsiativ portret orqali ifodalanishi, uning ijtimoiy va psixologik holati badiiy va nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Ona timsolining jamiyatdagi o'рни, uning ruhiy kechinmalari, ichki dunyosi hamda oiladagi va ijtimoiy muhitdagi roli ochib beriladi. Shuningdek, assotsiativ tasvir vositasida onaning mehr, fidoyilik, sabr va mas'uliyat kabi fazilatlari yoritilib, uning shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar ko'rib chiqiladi. Maqolada ona obrazining badiiy ifodasi orqali insoniy qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlar aks ettiriladi.

Kalit so'zlar. Ona obrazi, assotsiativ portret, ijtimoiy holat, psixologik holat, badiiy tasvir, ruhiy kechinmalar, mehr-muhabbat, fidoyilik, oila, jamiyat, shaxsiyat, qadriyatlar.

**ИЛЛЮСТРАЦИЯ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ
ОБРАЗА МАТЕРИ В АССОЦИАТИВНОМ ПОРТРЕТЕ МАТЕРИ**

Муродова Хафиза Мухаммаджоновна

Кокандский университет, аспирант

Аннотация. В данной статье анализируется выражение образа матери через ассоциативный портрет, ее социально-психологическое состояние с художественно-теоретической точки зрения. Раскрывается роль образа матери в обществе, ее духовные переживания, внутренний



мир, а также роль в семейной и социальной среде. Также через ассоциативный образ выделяются такие качества матери, как любовь, преданность, терпение и ответственность, и рассматриваются факторы, влияющие на ее формирование как личности. В статье отражены человеческие ценности и социальные отношения через художественное выражение образа матери.

Ключевые слова: образ матери, ассоциативный портрет, социальное состояние, психологическое состояние, художественный образ, духовные переживания, любовь, преданность, семья, общество, личность, ценности.

ILLUSTRATION OF THE SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL STATE OF THE MOTHER'S IMAGE IN THE ASSOCIATIVE PORTRAIT OF THE MOTHER

Murodova Khafiza Muhammadjonovna

Kokand DU basic doctoral student

Annotation. This article analyzes the expression of the mother's image through an associative portrait, her social and psychological state from an artistic and theoretical perspective. The role of the mother's image in society, her spiritual experiences, inner world, and role in the family and social environment are revealed. Also, through the associative image, such qualities of the mother as love, devotion, patience, and responsibility are highlighted, and the factors influencing her formation as a person are considered. The article reflects human values and social relations through the artistic expression of the mother's image.



Keywords. Mother's image, associative portrait, social state, psychological state, artistic image, spiritual experiences, love, devotion, family, society, personality, values.

Ona assotsiativ portretida millat onalarida kuzatiluvchi xarakterli xususiyatlar tavsiflanadi. Bunday portretida ularning nafaqat tashqi qiyofasi gavdalanadi, balki ijtimoiy rollari bilan bog'liq tavsiflari, ruhiy holatlari ham aks etadi. Manbalarda ona insoniyat madaniyati rivojlanishining birinchi sababchisi va dominantasi hisoblanishi, ona konsepti konseptual jihatdan kelib chiqish, tug'ilish, yaratilish va qo'llab-quvvatlash g'oyalari bilan bog'liqligi qayd etiladi. Shunga ko'ra o'zbeklar tasavvuridagi ona assotsiativ portretida ham ona obrazi, avvalo, farzandni dunyoga keltirish g'oyasi bilan bog'liq holda tavsiflangan. Masalan, assotsiativ portretidagi "Ona – farzandini dunyoga keltiruvchi inson" tavsifida onalarga xos mazkur xususiyat aniq aks etgan.

Ona assotsiativ portretida onalarning oilada qaynona, kelin rollarini bajarishi ham inobatga olingan. Ularning oiladagi bu rollari assotsiativ portretida quyidagicha tasvirlangan: "Ona – qaynona", "Ona – kelin".

Ayrim sinaluvchilar onani oila ustuni sifatida tavsiflashgan. Bu esa bunday sinaluvchilar uchun onaning oiladagi o'rni muhim ahamiyatga egaligini ko'rsatadi. Onaning oiladagi roli bilan bog'liq quyidagi javob reaksiyalarida onaning ijtimoiy roli tasviri yanada aniq namoyon bo'lgan: oilaning hamma tashvishi boshida, farzandlarining kelajagi uchun qayg'uradi kabilar.

Ona turtki so'zi assotsiativ maydonida onalarning jamiyatning turli sohalarida olib borayotgan mehnat faoliyatlari bilan bog'liq holda bajaradigan ijtimoiy rollarini aks ettiruvchi javob reaksiyalari ham uchraydi. Bunday javob reaksiyalari o'zbek onalari jamiyatning qanday sohalarida faoliyat olib borishlarini ochib berishga xizmat qilgan. Masalan, ona assotsiativ portretidagi



“Ona – tarbiyachi”, “Ona – o‘qituvchi”, “Ona – vrach” tasvirlari o‘zbek onalari, asosan, o‘qituvchi, tarbiyachi vazifalarida ishlashlari haqida ma’lumot tashiydi.

Onalarning oiladagi rolini ko‘rsatuvchi javob reaksiyalari umumiy javoblarning foizini, kasb-koriga ishora qiluvchi assotsiatsiyalar esa foizini tashkil qilgan. Demak, sinaluvchilar o‘zbek onalarini, avvalo, qaynona, kelin, uy bekasi sifatida tasavvur qilishadi.

Badiiy asarlarda ona obrazi tasvirida uning ijtimoiy rollariga ko‘p e‘tibor qaratilmaydi. Ona portreti tasvirlangan quyidagi matnlarga e‘tibor qaratamiz:

Ona assotsiativ portretida onaning ruhiy holati quyidagi javob reaksiyalari orqali namoyon bo‘lgan: xursand, bosiq,

Bu javob reaksiyalari onaning farzandlariga bo‘lgan cheksiz muhabbati, hayotiy qiyinchiliklarga qarshi kurashdagi matonatini ko‘rsatadi.

Badiiy asarlarda onalar ruhiyati tasviri assotsiativ portretidagi lisoniy tasviridan jiddiy farq qiladi.

Ona assotsiativ portretida uning tashqi qiyofasi, ko‘rinishiga oid tasvirlar ham uchraydi. Onaning tashqi qiyofasiga tavsif berishda uning tana a‘zolarini tasvirlovchi assotsiativ birliklar muhim o‘rin tutadi. Bunday birliklar somatik birliklar bo‘lib, til egalari ongidan o‘rin olgan ona obrazining somatologik assotsiativ portretini shakllantiruvchi tayanch birliklar hisoblanadi.

Somatik birliklar inson tana a‘zolari nomini anglatuvchi hamda ular ishtirokida tuzilgan birliklar (somatik iboralar) bo‘lib, tilshunoslikda somatik leksika, somatizmlar, somatikonlar deb ham yuritiladi. Y.A.Sorokin somatikonlarni “shaxsga o‘zini, vital va mental dunyosini yaxlit bir butunlik



sifatida ko'rishga imkon beradigan tegishli psixoglosslar, avtoobrazlar to'plami" sifatida talqin qiladi.

Somatik birliklar insonni tashqi qiyofasi, ko'rinishi asosida tavsiflashda keng qo'llanadi. Ayniqsa, badiiy adabiyotda personajning tashqi qiyofasini tasvirlashda tana a'zolari nomlarini anglatuvchi ushbu birliklar muhim o'rin tutadi. Biror bir inson yoki millatning somatologik assotsiativ portretini yaratishda ham bunday birliklardan turtki so'z sifatida samarali foydalanish mumkin.

Somatologik assotsiativ portret obyektning assotsiatsiyalarga asoslangan lisoniy tasviridir. M.R.Bedretdinovanning fikricha, "Somatologik xarita (portret – H.M.) noverbal obrazlarda taqdim etilgan "ob'ektlar"ni tavsiflashga bevosita yo'naltirilgan bayonotlar to'plamidir. Aytish mumkinki, uning boshqa "vazifasi" ham yo'q. Ushbu xaritada u yoki bu "iboralar"ning (bizning holatimizda u yoki bu leksema yoki so'z birikmalarining) ma'nosi dastlabki baho-tavsiflar ("boshi katta, yumaloq" kabi) o'xshatishlar (boshi shar kabi yumaloq, boshi koptok kabi va hokazo) bilan bog'lanmaguncha "yarmi bo'sh" bo'lib qoladi. Boshqacha aytganda, somatologik xaritada "ob'ektlar" nafaqat ba'zi noaniq alohidaliklar sifatida tavsiflanadi, balki "ashyoviy" belgilar bilan ham to'ldiriladi" .

Somatologik assotsiativ portretni yaratishda somatik birliklar bo'yicha til egalari hosil bo'lgan yuqori chastotali assotsiatsiyalar ishtirok etadi. Bunday assotsiatsiyalar biror obyekt (shaxs, millat va boshq.)ning tashqi qiyofasi, tana a'zolari tuzilishiga tavsif berishga xizmat qiladi.

O'zbek tilida somatik birliklar ishtirokida tuzilgan ayrim frazeologizmlar, o'xshatishlar, metaforik birikmalar insonning tashqi qiyofasini obrazli tasvirlashda ahamiyatlidir. Masalan, ko'zlari ichiga kirib ketmoq, ko'zlari



olaymoq, burnini jiyirmoq, labini tishlamoq somatik frazeologizmlari; yuzlari paxtadek oqarmoq, yuzi murdadek oqarmoq o'xshatishlari insonning tashqi qiyofasini tasvirlash biran birga, uning ruhiy holati haqida ham axborot tashiydi. Yoki sochlari tun, qoshlari kamon, tilla sochlari metaforalari; zulukdek qoshlari, kulchadek yuzi, moshdek xoli, ko'zlari munchoqday, mushtdek gavdasi o'xshatishlari insonning tashqi qiyofasini obrazli tasvirlashga xizmat qiladi.

Ona assotsiativ portretida o'zbek onalarining jismoniy holati tasviriga ham o'rin berilgan. Quyidagi javob reaksiyalari ona tasvirida uning jismoniy holatini tasvirlashga xizmat qilgan: oqargan sochlari, mehnatkash qo'llari. Bu assotsiatsiyalar onaning tashqi qiyofasini hayotiy tajribasi, mehnatkashligi kabi fazilatlari bilan bog'liq holda tasvirlashga xizmat qilgan.

Har bir inson muayyan madaniyat vakili ekan, obyektning milliy ko'rinishini birlamchi belgisi sifatida inobatga oladi va uni xotirasida saqlab qolishga harakat qiladi. Shu jihatdan obyektning biror bir millat egalari tasavvuridagi obrazi boshqa millat vakillari ongida o'zgacha obrazni yuzaga keltirishi mumkin. Bu obyektga milliy-madaniy yondashuvning ta'siri, uning idrok etilishida milliy tafakkurning roli kabilar bilan bog'liq. N.Mahmudov qayd etganidek, "Xalqlarning milliy-etnik va antropologik o'ziga xosliklariga mutlaqo muvofiq ravishda turli millatlarda, masalan, ko'zning aynan bir xil rangi emas, balki bir-biridan farqli ranglari go'zallik bilan bog'lanadi. Ruslarda ko'k, inglizlarda yashil, o'zbeklarda esa qora ko'z milliy qiyofa to'kisligi, go'zalligining asosiy unsurlaridan hisoblanishi ma'lum... Obyektiv borliqqa bunday farqli milliy-etnik munosabat, baholash me'yorlari va o'lchovlaridagi sezilarli tafovutlarga ko'ra o'xshatish etalonlarining tanlanishida ham turli tillarda o'ziga xosliklar kuzatiladi, albatta" .



Shuningdek, insonning tashqi qiyofasi tasvirida uning ayol yoki erkak jinsiga mansubligini inobatga olish o'ta muhim bo'lib, bunday yondashuvda ham milliy-madaniy omil ko'zga tashlanadi. U.M.Trofimova rus tili egalarining inson tana a'zolarini femininlik (ayol jinsi bilan bog'liq tavsiflar) /maskulinlik (erkak jinsi bilan bog'liq tavsiflar) omili bo'yicha baholashlarini aniqlash maqsadida ular ustida ekspress-tahlil o'tkazgan. Ushbu tajribada rus tili egalari tana a'zolarini yo femininlik (yuz, qomat, oyoq va boshqalarni) yoki maskulinlik jihatidan (yelka, peshona, bosh, iyak kabilarni) tavsiflashga moyil ekanliklarini ko'rsatishgan. Xitoy tili egalari ustida o'tkazgan tajribasida ham ushbu omilning universalligi tasdiqlangan. Shu bilan birga, xitoylik sinaluvchilar inson tana a'zolarini maskulin jihatdan baholashga ko'proq moyillik ko'rsatishgan. Tadqiqotchi bu holatni tajribada qo'llangan xitoycha matndagi substantivlarning ustunligi bilan bog'lagan". Anglashiladiki, insonning tana a'zolarini tasvirlashda turli millat vakillarining yondashuvlari bir-biridan farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – 140 б.;
2. Хошимова Н.А. Ўзбек тилида ассоциатив муносабатлар: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – 49 б.;
3. Таджибаев Б. Ўзбек тили миллий-маданий бирликларининг ассоциатив тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 55 б.;



4. Ортиқова Ҳ. Бадиий матннинг ассоциатив тадқиқи (Э.Воҳидов ва А.Орипов шеърлари мисолида): Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2022. –136 б.;

5. Жун Син, Го Лихун, Концепт " мать " в русской лингвокультуре // Современная наука: актуальные проблемы теории и практики. Филология. Серия: Гуманитарные науки. -М., 2024.-С.184-187.

6. Сорокин Б. А. Антропойентризм vs антропофилия : доводы в пользу второго понятия// Язык, сознание, коммуникация.-М., 1998б. Вып.4.-С. 36.(С. 34-44.)v

7. Бедретдинова М. Р. Характер и структура ассоциативных портретов: На материале русского и татарского языков: Дисс. ...канд. филол. наук.-М., 2002.-190с.

8. Махмудов Н. Ухшатишлар-образли миллий тафаккур махсули // Узбек тили ухшатишларининг изолировать лугати / Н. Махмудов, Д.Худойберганава. Тошкент: "Маънавият",2013. - Б.15.(- 320б.)